

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

TALABALAR MA'NAVIYA TINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM VOSITASI

Saidova Yulduz Zamon qizi

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining ma'naviyatini rivojlantirish zarur ijtimoiy hodisa sifatida tavsiflanib, talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning muhim vositalari izohlangan. Shuningdek, talabalar ma'naviyatini jamoada rivojlantirishning imkoniyatlari aniqlangan.

Tayanch so'z va iboralar: ta'lim islohoti, tarbiya, ma'naviyat, rivojlanish, jamoa nazariyasi, tarbiyachi, talaba, tarbiyaviy jarayon, uyushgan jamoa.

Mustaqillik sharoitida barkamol insonni tarbiyalash, ayniqsa, ularning ma'naviyatini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi qilib belgilandi. Talabalar ma'naviyatini shakllantirish jarayonini samarali tashkil qilishning zarur qismlaridan biri tarbiya vositalari hisoblanadi. Barcha vositalar tarbiya samarasiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatmasa-da, ammo, tarbiya metodlarining ta'sirini kuchaytirib, ularning ta'sirchanligini oshiradi.

Talabalar ma'naviyatini shakllantirish vositalariga tarbiyachi foydalanadigan o'quv qo'llanmalari, ilmiy-ommaviy badiiy adabiyotlar, tarbiya maqsadini amalga oshirish uchun tarbiyachi qo'llaydigan turli predmetlar - buyumlar, rasmlar, kishilarning ibrat namunasi, tajribasi, ommaviy axborot vositalari: radio, televidenie, videomateriallar, gazeta, jurnallar kiradi. Shu bilan birga talabalar jamoasi, faoliyat turlari (o'yin, mehnat, o'qish) da qo'llaniladigan mashqlar talabalarning tabiiy kuchlarini rivojlantirib, ularda bilim, ko'nikma, malaka va odatlarni, axloqiy qarashlarni shakllantiradi.

Talabalar hayotida biron-bir so'z, fakt yoki hodisa va munosabatlar yo'qki, ular bevosita tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lmasa. Buni parallel pedagogik ta'sir etish qonuni deb aytish mumkin. Bu qonunga muvofiq tarbiyalanadigan talabalar faoliyati ularni tarbiyalashning yagona vositasi bo'lib, ularning tabiiy kuchlarining rivojlanishi va takomillashuvini ta'minlab, insoniy sifatleri – ma'naviy-axloqiy va jismoniy sifatlerini tarbiyalaydi. Zero, tarbiya iroda, mardlik, maqsadga intiluvchanlikni jamoadagi maxsus mashqlar orqali tarbiyalashi mumkin. Ko'p



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

yillik pedagogik tajribadan kelib chiqib aytish mumkinki, «tarbiyalaydigan» va «tarbiyalamaydigan» vositalar yo‘q. Talabalar hayotining har bir elementi, munosabati tarbiyaviy vosita bo‘lib hisoblanadi. Chunki ular harakatga sabab bo‘ladi va o‘z navbatida mashq qildiradi hamda insonning u yoki bu sifatini takomillashtiradi. Talabalar har kuni, har daqiqada tarbiyalanadilar. Ammo, har qanday harakat talabalarda ijtimoiy mohiyatli sifatlarni tarbiyalay olmaydi. Uni tarbiya maqsadlariga muvofiq tashkil qilish va yo‘naltirish lozim. Shunda u talabada kutilayotgan sifatlarni tarbiyalash vositasi bo‘lishi mumkin. Tarbiyachi talabada shakllantiradigan vositalarni tanlashi lozim. Talabani bir kishi ta’siri bilan tarbiyalanishi qiyin. U munosabatlar tizimida tarbiyalanadi.

Shu jihatdan olganda bizning mustaqil mamlakatimiz ulkan o‘zgartiruvchi kuchga ega. Biz ana shu o‘zgartiruvchi kuch tarkibida turib yoshlar ma’naviyatini shakllantirish jarayonini tashkil qilishimiz, uni jamiyat axloq me’yorlari talablari asosida yo‘naltirishimiz va unga rahbarlik qilishimiz kerak. Yoshlar tarbiyasini har doim to‘g‘ri tashkil qilib, mustaqillik ideallariga sodiq kishilarni tarbiyalashga erishmog‘imiz lozim. Yoshlarda ijtimoiy zarur sifatlarni tarbiyalashda jamoa muhim vosita bo‘la oladi.

Talabalarni tarbiyalashda guruh jamoasi muhim rol o‘ynaydi. Jamoa deganda talabalar hayotini jamoaviy hayot talablari asosida tashkil qilishni tushunish kerak. Kishilarning maqsadsiz to‘plami emas, ijtimoiy maqsad birligida tashkil qilingan jamoa kuchli tarbiya vositasi bo‘la oladi. Jamoa paydo bo‘lib, hamkorlikdagi faoliyat oqibatida rivojlanadi. Shuning uchun jamoaning butun hayoti tarbiyaviy maqsadlarga bo‘ysundirilgan bo‘lishi lozim.

Talabalarining ma’naviyatini shakllantirishni maqsad qilib olgan tarbiyachi shunga muvofiq ular hayotini tashkil qila olishi lozim. Bunda asosiy «material» mustaqil mamlakatimizning ijtimoiy voqeligi bo‘lishi kerak. Ya’ni talabalar o‘qishi, o‘yin, mehnati mamlakatdagi ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy, axloqiy, mafkuraviy jarayonlar bilan uyg‘unlikda olib borilishi lozim.

Talabalar jamoasida ma’naviyatni shakllantirish jarayonini tashkil qilishda jamoa majlisi ham muhim vosita rolini bajaradi. Chunki unda jamoa hayotining xilma-xil masalalari muhokama qilinishi va ma’lum umumiy fikr ishlab chiqilishi mumkin. Talabalar jamoasi o‘zining hayoti va huquqlari doirasida o‘z faoliyatida tartib - intizomni mustahkamlab, har bir talaba va butun jamoa faoliyatini nazorat qilishni rejalashtiradi, boshqarishni ma’lum tartib asosida amalga oshiradi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Garchi, kun tartibi bilan tartib-intizom o'rtasida sezilarli farq bo'lsa-da, ular o'rtasida umumiylik ham bor. Bu umumiylik talabalar hayotini ma'lum tarzda tashkil qilishga xizmat qiladi.

Kun tartibi jamoaning xulq-atvorini tashqi jihatdan tashkil qilish vositasi bo'lsa, tartib-intizom vosita emas, balki uning natijasi, jamoa butun tarbiyaviy faoliyatining hosilasi hisoblanadi. Talabalarning ongli intizomi jamoadagi va jamiytdagi tartib-intizomlarga makon va zamon tizimida rioya qilish: o'quv mashg'ulotlari, ijtimoiy ishlarga, turli tadbirlarga o'z vaqtida kelish, umumiy qabul qilingan talablarga so'zsiz rioya qilishga o'rgatuvchi muhim vosita hisoblanadi.

Shuning uchun ta'lim muassasalarida talabalarni ongli intizom va qabul qilingan ish tartibiga rioya qilish mashqlari ishlab chiqilsa, fikrimizcha, foydali bo'ladi. To'g'ri tashkil qilingan kun tartibi – bu inson organizmining sog'lom, muhim «dinamik steoretipi»ni hosil qilish shartdir. Talabalar jamoasida ongli intizom va tartibga rioya qilish odatining shakllanishida tarkib topgan munosabatlar umumiy xulq-atvor madaniyati, kayfiyat, o'z burchiga munosabatda muhim hisoblanadi. Jamoada bunday sifatlarni tarbiyalashda unda shakllangan jamoa fikri ham muhim vosita hisoblanadi. Jamoa fikrining shakllanishida undagi sog'lom ruhiy axloqiy muhit va tanqid, o'z-o'zini tanqid muhim vosita sanaladi. Jamoa fikri talabalar xulq-atvoriga bir qator talablar qo'yadi. Bu talablar jamoa a'zolarining xulq-atvorida mustahkamlanib, uning odat va an'alariga aylanadi.

Bundan tashqari jamoa fikrining ta'sir kuchi bizning milliy xususiyatlarimiz bilan bog'liq. Ko'pchilik Sharq musulmon xalqlari orasida qadimiy tarixi, tili, madaniyati bilan ajralib turuvchi o'zbek xalqi milliy mentalitetida jamoaviy fikr o'ta katta ta'sir kuchiga ega. Buni jamoa bo'lib, turli tadbir – to'y, ma'raka, marosimlarni bamaslahat o'tkazish, mahalla-ko'yda uyushib yashash, farzandlar tarbiyasida ibratnamuna va fidoyilik ko'rsatish kabi sifatlarda yaqqol ko'rish mumkin. Talabalar ma'naviyatini shakllantirishda ham ta'lim muassasasi, guruh, ota-onalar, qo'shnilar, mahalladagilarning eng avvalo uyushganligi, ijobiy ibrat-namunasi, tajribasi uni amalga oshirishda muhim vosita bo'la olishiga shubha yo'q. Gap faqat uni pedagogik yo'naltira bilish, tarbiya vositasiga aylantirishda.

Jamoada shakllangan odat, tajriba, madaniy muomala asosida tarbiyaviy an'analar shakllanadi. An'ana tarbiyaviy jarayonda mustahkam o'rnashib kuchli tarbiya vositasiga aylanadi. An'analar ob'ektiv butun o'quv-tarbiya va talabalar jamoaviy hayoti tarzi ta'sirining natijasi sifatida shakllanadi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Ammo, talabalar ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq hamma umumiy odatga aylangan narsalar ham ijobiy an'ana bo'la olmaydi. Masalan, talabalar jamoasining tarqoqligi oqibatida salbiy an'analar ham kelib chiqishi mumkin. Uy vazifalarini o'zi ishlamasdan birovdan ko'chirish, o'rtog'i javob berayotganda «unga yordam» berish, ko'r-ko'rona bir-birini himoya qilish va h.k.

Zero, talabalar jamoasining rivojlanib, jipslashib borishi bilan salbiy an'analar, odatlar ijobiylari tomonidan siqib chiqariladi. Jamoani hech nima an'analardak jipslashtirmaydi, ularni saqlash tarbiyaviy ishning o'ta favqulodda muhim vazifasidir. O'z navbatida ta'kidlash kerakki, o'qituvchi-tarbiyachi o'z holicha an'analarni majburan talabalar jamoasiga kiritmasligi kerak.

Ta'lim-tarbiya bilan bog'liq an'analar har bir jamoa tabiiy rivojlanishining natijasi sifatida shakllangandagina jamoa hayotining maroqli, ajralmas qismiga aylanadi. Bunday an'analar talabalar ijtimoiy faolligi, tashabbusi va o'z-o'zini tarbiyalashining kuchli omiliga aylanadi. Bunda tarbiyachining vazifasi talabalar hayotini o'rganib, ularning haqiqiy ehtiyoji va imkoniyatlarini aniqlab, jamoa uchun foydali va istiqbolli, ijobiy an'analarni tarkib topishiga sharoit yaratishdir.

Ta'kidlash kerakki, an'analar bu jamoa faoliyatining doimiy harakat shakli sifatida talabalar hayotining muttasil takrorlanadigan joylari (elementi)da, eng asosiysi jamoaning kundalik harakati jarayonida shakllanadi. Talabalarning hozirgi ta'lim olish jarayonida bular umumiy majlislar, muntazam tekshirish natijalarini tahlil qilish, ijtimoiy ishlarga ishtiroki – obodonlashtirish, temir-tersak, makalatura yig'ish, qariyalar va yordamga muhtoj kishilarga g'amxo'rlik qilish, ma'lum joylar, tashkilot, mahallalarni otaliqqa olish jarayonida umumiy odat va an'analar tarkib topadi. Bularsiz, ya'ni «umunjamoaviy odat» larsiz umunjamoaviy harakatlar bo'lishi mumkin emas.

Ta'lim muassasasida har qanday harakat yagona maqsadga – talabalarni mustaqillik g'oyalari ruhida tarbiyalashga yo'naltirilishi lozim. Ammo, bu umumiy harakatni tashkil qilish, yagona maqsadga qaratish, yagona reja, yagona metod va vositalar hamda umumiy maqsadni, istiqbolga yo'naltirish uchun pedagogik rahbarlik markazi zarur bo'lib, har bir bo'g'in ishini tahlil va nazorat qilish o'zaro muvofiqlashtirish vazifasini bajarishi lozim. Ta'lim muassasasida bu ishni hozirgi sharoitda ma'naviyat-ma'rifat bo'limlari amalga oshirishi zarur.

Talabalar ma'naviyatini shakllantirish jarayonini tashkil qilishda jamoa bilan o'zaro munosabati haqida gapirar ekanmiz, shuni ta'kidlash lozimki, o'z xulq-atvori va



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

harakatini ongli ravishda jamoa manfaatiga yo‘naltirib, ular uchun kurashga tayyor va boshqalardan ham aynan shuni talab qiladigan talabani tarbiyalash har qanday tarbiyaning asosiy maqsadidir.

Demak, ma’naviyatni shakllantirish vositalari talabalarga ma’naviyatning mohiyatini anglash, uning ta’sirchanligini kuchaytirish, fikr doirasini kengaytirish, bevosita tarbiya maqsadini tushunib olishga yordam beradi.

Литература:

1. Мирзиёев Ш.М. «Вместе мы построим свободную и процветающую, демократическую страну Узбекистан». – Т.: «Узбекистан», 2016 – 16 с.
2. Зиновкина М. М. НФТМ-ТРИЗ: Креативное образование XXI века (Теория и практика): Монография. М., 2007.
3. Философия: (Учебное пособие) под общей редакцией Юсупова Е.Ю.- Т.: «Шарк», 1999 – 496 с.
4. Гасанова З.Д. «Развитие нравственно-эстетического мировоззрения будущих учителей профессионального образования». Б.: «Бухара», 2016.
5. Olimov Sh.Sh. Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari. (Monografiya). – Т.: “Fan va texnologiya”, 2015. - 228 b.
6. Человеческое развитие. Учебник. /И.ф.д., проф. В.Х. Под редакцией Абдурахманова. - Т.: Экономика, 2013. - С. 55.
7. Самиева Ш. Х. Важные направления инновационной подготовки молодежи к духовно-просветительской деятельности //Качество жизни населения промышленных территорий в стратегии «Общество 5.0». – 2022. – С. 153-156.
8. Авазбоев Атажан Исмоилович, Пардабоев Джасур Эшбоевич Эффективные пути развития творческих качеств у студентов // Современное образование (Узбекистан). 2018. № 8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/efficient-years-of-developing-creative-quality-in-students> (данные обращения: 29.05.2023).

